



ABDULLA QODIRIY IJODIGA ADABIY TANQIDCHILIK
MUNOSABATI

Ergashboyeva Mohinur Isroiljon qizi

*Farg‘ona davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish:
o‘zbek tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan adabiy tanqidchilik munosabatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, adibning *O‘tkan kunlar* romani misolida 1920–30-yillar tanqidchiligidagi mafkuraviy va biryoqlama yondashuvlar, sovet davridagi talqinlar hamda mustaqillik yillarida yuzaga kelgan yangicha ilmiy qarashlar qiyosiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqotda Sotti Husayn, Naim Karimov, Izzat Sulton kabi munaqqidlarning fikr-mulohazalari tahlil qilinib, ularning adib ijodiga bergan baholari yoritiladi. Shuningdek, Qodiriy asarlarining badiiy-estetik qiymati, tarixiy haqiqatni aks ettirish uslubi hamda milliy ruhni ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi. Maqola yakunida Qodiriy ijodining hozirgi adabiyotshunoslikdagi dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, *O‘tkan kunlar*, adabiy tanqidchilik, mafkuraviy yondashuv, badiiy-estetik tahlil, romanchilik, o‘zbek adabiyoti, tarixiy roman, milliy ruh, adabiyotshunoslik, ilmiy tahlil

KIRISH

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Qodiriy alohida o‘rin tutadi. U milliy roman janrining asoschisi sifatida nafaqat badiiy ijodi, balki adabiy-estetik qarashlari bilan ham o‘zbek ma‘naviy hayotiga katta hissa qo‘shgan ijodkordir. Ayniqsa, uning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” kabi asarlari o‘z davridayoq keng muhokamalarga sabab bo‘lib, adabiy tanqidchilik e‘tiborini jalb etgan. Shu jihatdan, Qodiriy ijodiga nisbatan bildirilgan adabiy tanqidiy qarashlarni o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. XX asr boshlarida yangi o‘zbek adabiyoti shakllanayotgan davrda adabiy tanqidchilik ham muhim



ahamiyat kasb etgan. Bu paytda Fitrat va Cho'lpon kabi ma'rifatparvar ziyolilar adabiyotga yangicha qarashlar bilan yondashganlar. Ularning fikrlari Abdulla Qodiriy ijodini baholashda muhim asos bo'lib xizmat qilgan. Biroq sovet davrida adabiyotga siyosiy nuqtai nazardan yondashuv kuchaygani sababli yozuvchining asarlari turlicha talqin qilina boshladi. Natijada, Qodiriy ijodiga berilgan baholar ham bir xil bo'lmay, davr va mafkuraga qarab o'zgarib bordi.

Mustaqillik yillarida esa Abdulla Qodiriy ijodi qayta ko'rib chiqildi va uning asarlariga nisbatan xolis, ilmiy yondashuvlar shakllandi. Natijada yozuvchining badiiy mahorati, tarixni tasvirlash uslubi, obrazlari hamda milliy ruhni ifodalashdagi o'rnini chuqurroq o'rganish talabi kuchaydi. Shu sababli Qodiriy ijodiga doir adabiy tanqidiy qarashlarni tizimli tarzda o'rganish adabiyotshunoslar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Adabiy tanqidchilik tarixiga nazar tashlasak, ayniqsa, 1930-yillarda Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan ko'proq yuzaki va biryoqlama yondashuvlar ustun bo'lganini kuzatamiz. Bu davr munaqqidlari yozuvchi asarlarini asosan siyosiy va mafkuraviy mezonlar asosida baholab, uni "yangi jamiyat yo'lida kurashchi", "sotsialistik g'oyalar targ'ibotchisi" yoki aksincha, "eski jamiyat va diniy qarashlarning dushmani" sifatida talqin qilishga urinadilar. Bunday yondashuvlar natijasida asarlarning badiiy-estetik mohiyati ko'pincha ikkinchi darajaga tushib qolgan. Dastlabki tanqidchilar orasida Sotti Husayn alohida o'rin egallaydi. U 1931-yilda "O'tkan kunlar" romaniga bag'ishlangan tanqidiy asar yozib, unda romanni asosan sinfiy kurash nuqtai nazaridan tahlil qiladi. "Sotti Husaynning "O'tkan kunlar" asariga ham bir qancha tanqidiy fikrmulohazalarini ko'rishimiz mumkin. 1931-yilda tanqidchining "O'tkan kunlar" nomli tanqidiy kitobi nashr etilgan. Sotti Husaynning yo'l qo'ygan xatolarning eng kattasi –uning Abdulla Qodiriy ijodiga va asosan "O'tkan kunlar" romaniga vulgar sotsialogik baho bergani bo'ldi. Avvalo biz bilamizki, Sotti Husayn Abdulla Qodiriy ijodini keng miqyosda o'rganib, tahlil qilgan tanqidchi hisoblanadi. Shu o'rinda Sotti Husaynning "Roman ham haqiqat" maqolasiga fikrlarimiz orqali ba'zi izohlarni keltirib o'tamiz. Maqola boshida Sotti



Husayn avvalo O'rta Osiyoni rus imperializmi bosib olgunga qadar bo'lgan vaqt va vaziyat haqida o'zining fikr-mulohazalarini bildirgan. Hamda "O'tkan kunlar" 1848-1849-yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, o'sha davrni qay tarzda yoritgani yoki o'zi bu romanni biz roman deya olamizmi, bu davr o'sha davr tarixiy sirlarini ochganmi degan bir qancha savollarni qo'yadi va bu savollar o'rinli ekanini isbotlash maqsadida bir qancha romon haqidagi izohlarni keltirib o'tadi: Abdulla Qodiriy o'z romani "O'tkan kunlar" bilan aytgisi, nasihat qilgisi kelgan narsa ijtimoiy axloqdir deya ta'kidlaydi; O'tgan zamonni qurol qilib olib va shu yo'sinda syujet o'ylab chiqqandir. Yozuvchining "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir" degan jummalari o'zini oqlamaganligi to'g'risida Sotti Husayn fikr yuritadi. Ya'ni Sotti Husayn fikricha, Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani bilan haqiqatni buzgandir; Asarda berilgan Otabek va Yusuf Hoji obrazlari noto'g'ri tasvirlangan. Ya'ni ular o'sha davr savdogarlariga nisbatan zid fikr bildirganlikda ayblanadi. O'sha davr savdogarlari rus imperiyasi bilan bo'lgan aloqadan manfaatdor bo'lgan ya'ni savdogarlar uchun tavar almashish jarayoni bir qancha yengilliklarni keltirib chiqarilgan deyiladi. Hamda Otabek va Yusuf Xoji ham hamma qatori yuqori qatlam vakili bo'lgan savdogar edi. Ularni xalqdan alohida ajratib ololmaymiz. Shunday ekan, nima uchun Otabek va Yusufbek hoji o'ziga manfaatli tomonni qo'yib, ularga qarshi chiqsin. Bu vaziyat o'sha davr muhitiga va sharotiga to'g'ri kelmaydi. Homid obrazi ham asarda katta yer egasi, siyosatga, ruslarning bosib olishiga e'tiborsiz bo'lib tasvirlangan. Katta yer egasi shunday qarab turadimi? Albatta, yo'q"¹. Bu kabi tanqidlar, aslida, asarning badiiy qiymatini emas, balki uni davr mafkurasi talablariga moslashtirishga qaratilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Abdulla Qodiriyning o'zi ham tanqidlarga befarq qolmagan. Uning "«O'tkan kunlar» ham «O'tkan kunlar» tanqidi ustida ba'zi izohlar" (1929) nomli maqolasi aynan shu bahs-munozaralarga javob sifatida yozilgan bo'lib, unda yozuvchi o'zining badiiy maqsadini tushuntiradi va

¹ "Sotti Husayn adabiy tanqidiy qarashlari" Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi



tanqidchilarning biryoqlama qarashlariga munosabat bildiradi. Bu esa adibning ijodiy pozitsiyasi mustaqil va ongli ravishda shakllanganini ko'rsatadi.

“Menim «O'tkan kunlar»im to'g'risida Sotti Husaynning katta tanqidi bosilib, yaqinda tamom bo'ldikim, bu muhtaram «Sharq haqiqati» o'qug'uchilarining ma'lumidir. Ijtimoiy yosh olimimiz S. Husayn o'zining ko'b vaqtini sarf qilib, tanqidchilik bobidag'i birmuncha nuqsonlarimizni to'ldurushqa buyuk jasorat va g'ayrat ko'rsatdikim, buning uchun biz, adabiyot muhoblari, S. Husaynga tashakkur aytishka, har doim bu yo'lda unga moddiy va ma'naviy yordam berib turishka burchlimiz. Bundan birar yillar muqaddam o'rtoq Sotti Husayn «O'tkan kunlar»ni tanqid qilish niyatida bo'lg'anlig'ini menga izhor qilib, yordam so'rag'anida, unga xursandligimni bildirgan, «Agar sen shu niyatingda sobit qolsang, tanqidchilikdag'i bir nuqsonimizni yo'qotasani!» degan, kerakli ma'lumotlar berib, hatto meni ro'mon yozishg'a havaslandirgan Misr fuzalosidan ustoz Jo'rji Zaydon bilan uni tanishtirib, Jo'rji Zaydonning ro'mon va g'ayri asarlarini S. Husaynga tavsiya qilib va orzusi bo'yincha tarjimai holimni ham yozib bergan edim. Darhaqiqat, siz va bizning vazifamiz bunday yosh, g'ayur yigitlarga har doim dalda berishlikdir. Bu qadar katta va to'la tanqidni ko'rmagan xonandalardan ba'zilari (ehtimolki, mening yuzim uchun bo'lsa kerak) «Zeriktirdi, mavzudan chiqdi, falon» kabi shikoyatda bo'lindilarkim, bahorhol bu yo'sun sathiy[2] tushunish yoki bunday mufassal tanqidni o'zbek matbuotida birinchi martaba ko'rishdan yoxud munaqqidning bahsiga yaxshi tushunmaganlikdandir. Durust, birmuncha mavzudan chiqish kabi hollar ko'rildi, ammo munaqqidning biloqasd mavzudan chiqishdag'i maqsadi o'zbek yosh yozg'uchilarig'a adabiyot bobida bir qadar dars berish, ularg'a rahbarlik qilish edi, deb o'ylayman. Boshqa jihatlarda tanqidchining qusuri ko'rilar ekan, buning yoshlig'ig'a va tajribasizligiga havola qilish lozimdir.

Mo'tabar «Sharq haqiqati» gazetasining shu ustunlarini qoralashdan maqsadim S. Husaynning «O'tkan kunlar»im to'g'risidag'i tanqidig'a javob berish falon bo'lmay (chunki bu mening vazifamga kirmas deb o'ylayman), balki sarlavhada



ko'rsatilganча mengа g'aribroq tuyulg'an bir necha nuqtalar ustida izohlar berishdir"².

1920-yillar o'rtalarida Ziyо Said tomonidan yozilgan "O'zbek adabiyotida romanchilik" maqolasida esa romanning badiiy yutuqlari ma'lum darajada e'tirof etiladi. Biroq keyinchalik siyosiy vaziyat o'zgarishi bilan ushbu asarga nisbatan tanqidiy yondashuv kuchayib, uning ijtimoiy jihatlarі keskin tanqid qilina boshlaydi.

1930-yillarga kelib tanqid yanada keskinlashadi. Otajon Hoshim va boshqa munaqqidlar tomonidan matbuotda, xususan "Qizil O'zbekiston" va "Mushtum" kabi nashrlarda e'lon qilingan maqolalarda Qodiriy asarlari "reaksion", ya'ni ortga tortuvchi adabiyot sifatida baholanadi. Bu davr tanqidchiligi asosan sinfiylik, partiyaviylik va ideologik mezonlarga tayanib ish olib borgan. Bu jarayon quyidagi fikrda ham o'z ifodasini topgan: "Abdulla Qodiriy ijodini har davr munaqqidlari siyosiy-mafkuraviy posongidan turib talqin qilganligi, undan siyosatga oid ma'nolar chiqarishga uringanlari va nimalarnidir kashf etganliklari holda, asarning sof estetik mohiyatini inkor etolmaganlari tarixiy haqiqat. 30-yillar tanqidchilari Abdulla Qodiriy ijodidan sinfiylik alomatlarini qidirgan bo'lsalar, 60–80-yillarda adib sotsializm tarafdoriga aylantirildi"³.

1960-1980-yillardagi darslik va tadqiqotlarda Qodiriyning jadidchilik o'tmishi "xato" deb atalgan holda, uning keyingi ijodi (masalan, "Obid ketmon" qissasi) "sho'ro tuzumini chin dildan qabul qilgani" va "kollektivlashtirishni qo'llab-quvvatlagani" sifatida talqin qilingan. Matyoqub Qo'shjonov kabi munaqqidlar o'zlarining o'sha davrdagi asarlarida (masalan, "Qodiriyning tasvirlash san'ati", 1966) "O'tkan kunlar"dagi feodal tuzum tanqidini sotsialistik inqilobning zarurligini ko'rsatuvchi omil sifatida talqin qilganlar. Ya'ni, adib o'tmishni yomonlash orqali go'yoki sotsializmga yo'l tayyorlagandek ko'rsatilgan. 1930-yillarda "Obid ketmon" qissasi "quloqlarni himoya qiluvchi" asar deb tanqid qilingan bo'lsa, 60-80-yillarda aksincha, Qodiriyning "sotsialistik qurilishdagi faol ishtiroki" va "yangi inson

² Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar» ham «O'tkan kunlar» tanqidi ustida ba'zi izohlar (1929)

³ Dilmurod Quronov. Qodiriyshunoslik qirralari. Sharq yulduzi jurnali, 2016-yil, 1-son)



qiyofasini yaratgani"ning isboti sifatida pesh qilingan. Izzat Sulton va boshqalarning tadqiqotlarida adabiyotshunoslikda Qodiriyning dunyoqarashi "burjua demokratizmidan sotsialistik realizmga tomon o'sib bordi" degan g'oya ilgari surilgan. Bu bilan adibni sho'ro mafkurasiga "geometrik mos" qilishga harakat qilingan. Qisqa qilib aytganda, 60-80-yillar tanqidchiligi Qodiriyning "millatparvar jadid" emas, balki "eskilikni fosh etuvchi va yangi sotsialistik hayotga intiluvchi realizm ustasi" sifatida talqin etgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Abdulla Qodiriy ijodiga oid adabiy tanqidchilik qarashlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu masala o'zbek adabiyotshunosligida murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, O'tkan kunlar romani yuzasidan bildirilgan fikrlar turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida shakllangan. Dastlabki tanqidiy qarashlarda mafkuraviy mezonlar ustunlik qilgani kuzatiladi. Keyinchalik esa adib ijodini yanada chuqurroq va kengroq tahlil qilishga intilish paydo bo'lgan. Bu jarayonda ayrim noto'g'ri va biryoqlama fikrlar ham yuzaga kelgan. Xususan, 1930-yillar hamda 1960-yillar adabiy tanqidchiligida Qodiriy ijodiga ko'proq salbiy va mafkuraviy ruhda yondashilgan bo'lsa, keyinchalik siyosiy muhitdagi o'zgarishlar natijasida uning nomi oqlanib, adabiy merosi qayta tiklana boshlagan. "Ilmiy adabiyotlarda yangicha qarashlar U. Normatov, M. Qodirov, A. Hayitmetov, O. Sharafiddinov kabi tanqidchilar Qodiriy asarlarining: tarixiy haqiqatni badiiy talqin qilish usuli, obraz yaratish mahorati, til va uslubidagi yangilik, o'zbek adabiy tilini rivojlantirishdagi o'rni kabi jihatlari chuqur ilmiy tahlil qila boshladilar. Romanlar poetikasini tadqiq etish "O'tkan kunlar"ning kompozitsiyasi, psixologizm, tarixiylik, konfliktlar tizimi yuqori darajada o'rganila boshladi. "Mehrobdan chayon" esa jamiyatdagi adolatsizlik, ma'naviy buzulq, o'z vaqtining mafkuraviy kurashlarini yoritgan asar sifatida talqin qilindi. Mustaqillik davri tanqidchiligida (1991–hozirgacha) Qodiriy ijodi haqiqiy ilmiy, erkin yondashuv asosida qayta baholandi. Qodiriyning milliy adabiyotdagi o'rnini belgilashda tanqidchilar uni milliy romanchilik asoschisi, xalqning tarixiy xotirasini tiklovchi, ma'rifatparvar ijodkor sifatida e'tirof etadilar.



Mustaqillikdan so‘ng Qodiriy romanlariga yangicha nuqtai nazar shakllandi: “O‘tkan kunlar” — milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarining badiiy talqini, “Mehrobdan chayon” — jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi keskin pozitsiya, Qodiriyning publitsistikasi — xalqning madaniy va ijtimoiy uyg‘onishiga xizmat qilgan asarlar sifatida o‘rganildi”⁴. Shu davrda Qodiriy ijodini ilmiy va xolis baholashga intilgan bir qator tanqidchilar faoliyat yuritgan. Ular orasida Naim Karimov, Bahodir Karim va Izzat Sulton kabi shaxslar alohida ajralib turadi.

Naim Karimov o‘z tadqiqotlarida Qodiriy ijodining badiiy-estetik jihatlarini chuqur tahlil qilib, uning romanchilik uslubidagi yangiliklarni, tarixiy voqealarni badiiy tasvirlash mahoratini yoritgan. U, xususan, “O‘tkan kunlar” romanidagi ijtimoiy va tarixiy qatlamlarning bir-biri bilan uyg‘unligi, obrazlar tizimining murakkabligi va xalq hayotini real ifodalashga bo‘lgan intilishini alohida ta’kidlagan. Karimovning fikricha, Qodiriy faqat siyosiy yoki mafkuraviy nuqtai nazardan emas, balki milliy ruhni ifodalash va badiiy mahoratni rivojlantirish yo‘nalishida ham muhim qadam qo‘ygan.

Bahodir Karim esa Qodiriy ijodini tanqid qiluvchi eski maqolalarga javoban, yozuvchining tarixiy haqiqatni saqlab qolish va o‘tmish voqealarini estetik qirralari bilan yoritishdagi rolini ta’kidlagan. U o‘z maqolalarida, masalan, “Mehrobdan chayon” va boshqa romanlarda ijtimoiy ziddiyatlarni ko‘rsatish uslubini tahlil qilgan, bu orqali Qodiriyning faqat siyosiy kurashchi sifatida emas, balki badiiy tafakkur egasi sifatida ham qadrlanishi lozimligini ko‘rsatgan:

“Ayni zamonda adabiyotshunoslik ilmi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek go‘zal romanlariga munosabat tarixini qayta idrok etish, qayta baholash, qayta talqin qilish jarayoniga qadam qo‘ydi. Ilmiy tadqiqot qoidasiga ko‘ra ob’ekt tarixiga nazar tashlanadi; mavjud manbalar holati ilmiy nuqtai nazardan kuzatiladi. Shu ma’noda Qodiriyshunoslik o‘zining yangi maydoni va bosqichiga kirar ekan, tabiiyki, aytilajak ayrim yangi fikrlarni avvalo mavjud manbalarga munosabatdan keltirib chiqarishi kerak edi. Shu o‘rinda adibning

⁴ Mashrapova Mohira “Abdulla Qodiriy ijodiga adabiy tanqidchilik munosabati” maqolasidan



nevarasi Xondamir Qodiriy tomonidan 1992 yili “O‘tkan kunlar” romani 1926 yildagi, “Mehrobdan chayon” esa 1929 yildagi nashrlari asosida qayta nashr ettirilganini ta’kidlash lozim bo‘ladi. O‘zining ijodiy-ilmiy faoliyati davomida Abdulla Qodiriy asarlariga murojaatni kanda qilmagan adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonov 90-yillarga kelib, ko‘pgina kuzatishlarini “Qodiriy-erksizlik qurboni” hamda “O‘zbekning o‘zligi” degan kitoblarida jamlashga muvaffaq bo‘ldi. M. Qo‘shjonov “Qodiriy – erksizlik qurboni” kitobida adabiy tanqidchilikning ulug‘ adib ijodiga munosabatining ayrim qirralarini tekshiradi. Ijoddagi, fikrdagi erksizlik Qodiriy ijodini talqin qilishda naqadar g‘ayriilmiy yondashuvlarga olib kelganligi ustida qimmatli fikrlar bildiradi.

Abdulla Qodiriy ijodini talqin qilgan M. Sheverdin, S. Husayn, Oybekning ilmiy qarashlari bilan bahsga kirishadi. Adabiyotshunosning mukammal shakllangan estetik pozitsiyasi badiiy asarga estetik voqea, san’at namunasi, ma’naviyatning ko‘rkamu obidasi sifatida qarashga imkon beradi. Agar insonda bu ichki did-farosat, go‘zallikni anglash, his etish, tushunishdek ne’mat yo‘q bo‘lsa, adabiyotdek pokiza maydonga, so‘z saltanatining oltin qasriga ko‘zsiz qalb, qalbsiz ko‘z bilan kirishdan foyda yo‘q”⁵

Izzat Sulton esa Qodiriy ijodida milliy an’analarni, qadimiy adabiy merosni yangicha talqin qilishdagi uslubi va adibning tarixiy voqealarni romanchilikning badiiy vositalari orqali yoritishidagi yondashuvini tahlil qilgan. Sulton yozishicha, Qodiriyning asarlari orqali o‘quvchi nafaqat tarixiy voqealarni o‘rganadi, balki milliy ong va madaniyat ruhini ham his qiladi. Shu bilan birga, u eski tanqidchilarning biryoqlama yondashuvlarini tanqid qilgan va adib ijodining sof estetik qirralarini qadrlashni tavsiya qilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tanqidchilar Qodiriy ijodini o‘rganishda ilmiy va tizimli yondashuvni asos qilib olgan. Ular asarlarni faqat siyosiy yoki mafkuraviy mezonlar bilan emas, balki badiiy-estetik jihatlar, obrazlar tizimi, tarixiy va ijtimoiy qatlamlarni tahlil qilish orqali baholagan.

⁵. Bahodir Karimov. Abdulla Qodiriy ijodining yangicha talqinlari.



XULOSA

Abdulla Qodiriy ijodi nafaqat o'z davrida, balki keyingi davrlarda ham adabiy tanqidchilikning markaziy mavzularidan biri bo'lib kelgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, adib asarlari turli davr tanqidchilari tomonidan har xil nuqtai nazarlardan muhokama qilingan. Xususan, uning romanchilik uslubi, obrazlar tizimi hamda milliy ruhni aks ettirishdagi mahorati keng tahlil ob'ekti bo'lib xizmat qilgan. Qodiriy ijodiga berilgan baholar tarixiy jarayonda bir xil bo'lmagan: dastlabki bosqichlarda mafkuraviy va biryoqlama yondashuvlar ustunlik qilgan bo'lsa, keyingi davrlarda ilmiy va xolis tahlillar asosida adib merosi yanada yuqori baholana boshladi. Bu esa Qodiriy ijodining chuqur va ko'p qirrali ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bugungi kunda ham Qodiriy ijodiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar muntazam ravishda e'lon qilinmoqda. Uning asarlari adabiyotshunoslar uchun yangi tahliliy yondashuvlar, ilmiy izlanishlar va nazariy qarashlar ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bu holat adib merosining zamonaviy adabiy jarayonda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, Qodiriy asarlari faqat tarixiy yoki siyosiy kontekstda emas, balki yuksak badiiy-estetik qiymati bilan ham ajralib turadi. Romanlaridagi obrazlar tizimi, voqealar rivoji va milliy ruhni ifodalash uslubi uning ijodini nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi o'quvchi va tadqiqotchilar uchun ham nihoyatda qimmatli qiladi. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiyoti rivojida muhim tarixiy bosqichni ifodalash bilan birga, hozirgi adabiyotshunoslik uchun ham boy ilmiy manba bo'lib qolmoqda. Uning asarlari adabiy tanqid, badiiy tahlil hamda milliy madaniyatni anglash nuqtai nazaridan doimo ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sotti Husayn. O'tkan kunlar haqida tanqidiy maqolalar. – Toshkent, 1931.
2. Ziyo Said. “O'zbek adabiyotida romanchilik” // Maorif va o'qituvchi, 1920-yillar.
3. Izzat Sulton. Qodiriyshunoslik qirralari. Sharq yulduzi jurnali, 2016-yil, 1-son.
4. Matyoqub Qo'shjonov. Qodiriy – erksizlik qurboni. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992.



5. Matyoqub Qo'shjonov. O'zbekning o'zligi. – Toshkent, 1994.
6. Bahodir Karim. Qodiriy va zamon. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
7. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Fan.
8. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999
9. Abdulla Qodiriy. “«O'tkan kunlar» ham «O'tkan kunlar» tanqidi ustida ba'zi izohlar” // Qizil O'zbekiston, 1929.
10. Xongeldiyeva Sevara Shuhrat qizi. “Sotti Husayn adabiy-tanqidiy qarashlari”.